

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

FAYZIYEV ELYOR ALIYEVICH

**AMUDARYO DELTASI LANDSHAFTLARINING MELIORATSIYA
TA'SIRIDA O'ZGARISHI**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Fayziyev Elyor Aliyevich

Amudaryo deltasi landshaftlarining melioratsiya ta’sirida o‘zgarishi 3

Файзиев Элёр Алиевич

Изменение ландшафтов дельты Амударьи под влиянием мелиорации 23

Fayziev Elyor Alievich

Change of landscapes of Amudarya delta due to reclamation 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

FAYZIYEV ELYOR ALIYEVICH

**AMUDARYO DELTASI LANDSHAFTLARINING MELIORATSIYA
TA'SIRIDA O'ZGARISHI**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Gr265 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rafikov Vahob Asamovich
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qo'ziboyeva Ozodaxon Maxmudovna
geografiya fanlari doktori, dotsent

Allanazarov Keunimjay Jannazarovich
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 20-sentyabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Samarqand davlat universiteti, Bosh bino 105-xona, Tel.: (+99866) 239-16-36, faks: (+99866) 239-11-40; Ye-mail: ik-geografiya@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 79 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 6-sentyabr kuni tarqatildi.
(2024-yil 26-avgustdagi 19-raqamli reestr bayonnomasi).



S.B.Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
g.f.d., professor

B.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
g.f.f.d, dotsent

Q.S.Yarashev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, g.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkablashib borishi oqibatida bugungi kunda yerlarning meliorativ holatini yomonlashuvi, tuproq va o'simlik degradatsiyasi, sug'oriladigan yerlarning texnogen buzilishi, cho'llar maydonining kengayib borishi kabi salbiy ekologik hamda tabiiy geografik jarayonlarni oldini olish alohida ahamiyat kasb etmoqda. BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish dasturining 15-maqsadi 15.2, 15.3-bandlari "cho'llashishga qarshi kurashish, ekologik vaziyatni yaxshilash, degradatsiyani oldini olish, bioxilma-xillikni saqlash hamda iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish" kabi vazifalar belgilangan¹. Mazkur vazifalarning yechimini aniqlashda arid mintaqalardagi landshaftlarda yer osti suvlari ta'siri natijasida ro'y berayotgan jarayonlarni va sug'oriladigan yerlarning landshaft meliorativ holatini tadqiq etishni taqozo etadi.

Dunyo miqyosida arid mintaqalardagi landshaftlarni meliorativ holatining yomonlashuvi, yer osti suvlari va tuproq sho'rlanishi o'rtasidagi aloqadorlik, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning texnogen buzilishini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada dunyo miqyosida qishloq xo'jalik (agro) landshaftlaridan foydalanish va landshaft meliorativ holatini yaxshilashda hududning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda meliorativ chora-tadbirlar ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproq sho'rlanishini oldini olish, sug'oriladigan yerlarda sug'orishni to'g'ri tashkil qilish sohalarida izchil ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "sug'oriladigan yerlarni eroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum ko'chishidan saqlash uchun ixota daraxtzorlarini barpo etish"² kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar yechimida, ayniqsa Amudaryo deltasining turli darajada sho'rlangan, sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 avgustdagi PQ-257-son "Qishloq xo'jaligi sohasiga ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 7 iyundagi PQ-273-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, 2023 yil 15 martdagi 3041-IV son O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida"gi Qarori, 2023 yil 29 apreldagi 170-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalaridan foydalanish sohasida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari

¹БМТнинг 2030 йилгача барқарор ривожланиш дастури

https://www.un.org/ga/search/view_doc.asp?symbol=A/RES/70/1&Lang=R

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон

to'g'risida"gi hamda 2023 yil 2 fevraldagi 50-son "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish tadbirlarini monitoring qilish, baholash va hisobot shakllarini ishlab chiqish hamda ularning natijalarini chop etish tartibi to'g'risida"gi Qarorlarini hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. "Yer haqidagi fanlar", V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Amudaryo deltasining tabiiy-meliorativ sharoitini o'rganish va baholash bilan bog'liq masalalarni yechishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan V.P.Kostyuchenko, R.A.Sorokina, V.A.Timoshkina (1969), I.N.Stepanov (1979), F.M.Raximbayev (1980), A.A.Rafikov (1984), A.K.Urazbayev (1988), F.I.Xakimov (1989), B.Jolibekov (1992), A.K.Kurbaniyozov (2001) K.J.Allanazarov (2002), I.R.Turdimambetov (2005), A.N.Nig'matov, P.Reymov, S.Abdreymov (2006), V.A.Rafikov (2017), D.B.Xursanov (2019), Q.Q.Tajiyev (2021), Z.A.Ganiyev (2022) va boshqalar shug'ullangan.

Ammo, Amudaryo deltasi landshaftlarining melioratsiya va inson xo'jalik faoliyati ta'sirida davriy o'zgarishlari hamda landshaftlarga ta'sir etuvchi yer osti suvlari sathi, grunt suvlarining minerallashuvi, delta tuproqlarining sho'rlanish darajalariga bog'liq holda o'rganilganligi bilan mazkur dissertatsiya ishi boshqa ishlardan farq qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Janubiy-G'arbiy O'zbekiston geosistemalarini baholash va kartalashtirish" (2021-2025 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Amudaryo deltasi landshaftlarining dinamik o'zgarishiga melioratsiyani ta'sirini aniqlash, deltada melioratsiyani rivojlantirish va yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Amudaryo deltasi landshaftlarining tabiiy-meliorativ holatiga hududning litologik-geomorfologik tuzilishi va gidrogeologik jarayonlar, tuproqning suv-tuz rejimi, yerlarning tabiiy drenajlanishi kabi omillar ta'sirini aniqlash;

landshaftlarning meliorativ holatini belgilovchi tabiiy omillar tahlil qilinib, ulardan qishloq xo'jaligi maqsadlarida rejali holda foydalanish, qo'riq yerlarni sug'orish va o'zlashtirishda meliorativ muammolarning sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslash;

Amudaryo deltasi "Grunt suvlarining minerallashish va tuproq sho'rlanish darajasi" hamda "Amudaryo deltasi grunt suvlari sathining o'zgarishi" yillar bo'yicha o'zgarish kartalarini yaratish;

sugʻoriladigan yerlarning landshaft meliorativ holatini tubdan yaxshilash boʻyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Amudaryo deltasi landshaftlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Amudaryo deltasi sugʻoriladigan yerlarining melioratsiya taʼsirida oʻzgarishiga yer osti suvlari oqimi, tuproqning suv-tuz rejimi va yerlarning tabiiy drenajlanishi kabi geografik omillar taʼsirini tahlil qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida dala-tadqiqot, geografik taqqoslash, tizimli yondashish, kartografik, zamonaviy geografik axborotlar tizimi (GIS), statistik hamda landshaft geokimyoviy usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Amudaryo deltasidagi hududlar tabiiy sharoitining oʻziga xosligi, yer osti suvlari va tuproq shoʻrlanish darajalari bilan bogʻliq ravishda shoʻrlanmagan, kuchsiz shoʻrlangan, oʻrtacha shoʻrlangan va kuchli shoʻrlangan tuproqlar vujudga kelganligi asoslangan;

Amudaryo deltasida sugʻoriladigan va yangi oʻzlashtirilgan yerlarning tuproq meliorativ holatini yaxshilash maqsadida sugʻorish maydonlarining tabiiy meliorativ holatlari aniqlangan va ilmiy asoslangan;

Amudaryo deltasining 1:1000000 masshtabdagi “Grunt suvlari sathining oʻzgarishi (1991, 2001, 2011, 2022 yillar)”, “Amudaryo deltasi tuproqlarining mexanik tarkibi va shoʻrlanish darajasi” hamda “Grunt suvlarining minerallashish va tuproq shoʻrlanish darajasi” kartalari ArgGIS dasturida yaratilgan;

Amudaryo deltasi yerlari tabiiy meliorativ jihatdan yaxshilash maqsadida rayonlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Amudaryo deltasidagi yer osti suvlari va tuproq shoʻrlanish darajalari bilan bogʻliq ravishda tuproq turlariga ajratilgan;

Sugʻorish maydonlarining tabiiy meliorativ holatlari aniqlangan hamda Amudaryo deltasi landshaftlarining kelajakda sodir boʻlishi mumkin boʻlgan salbiy oʻzgarishlarning oldini olish uchun chora tadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Amudaryo deltasining yer osti suvlari sathi, tuproqlarining mexanik tarkibi va shoʻrlanish darajasi hamda grunt suvlarining minerallashish va tuproq shoʻrlanish darajalari eksperimental aniqlangan;

Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini belgilovchi tabiiy omillarni tahlil qilingan va ularning shakllanish qonuniyatlarining aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishi natijalari va xulosalarining ishonchliligi unda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi qoʻmitasi maʼlumotlaridan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya boshqarmasi materiallaridan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Yer resurslari va kadastr boshqarmasi maʼlumotlaridan, dissertantning (2020, 2021, 2022, 2023 yillar davomida professor V.A.Rafikov rahbarligidagi “Orol boʻyi va Amudaryo deltasi geoeekologik tadqiqot ekspeditsiyasi”) oʻzi toʻplagan dala tadqiqoti materiallaridan, tadqiqot ishlarining ilmiy tahlili natijasida ishlab

chiqilgan mavzuli kartalar, taklif va tavsiyalar, amaliyotga joriy qilinganligi va ularning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishni bajarish davomida amaliyotga tadbiriq etilgan ilmiy xulosalar va chora-tadbirlar ishlab chiqilganligi, Amudaryo deltasi landshaftlarining meliorativ holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar yer osti suv oqimi va tuproq sho'rlanish darajalarining tahlil qilinishi hamda meliorativ holatini yaxshilashning asosiy yo'nalishlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Amudaryo deltasi meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishda deltaning qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlari va tabiiy resurslari kompleks o'rganilib, Amudaryo deltasining 1:1000000 masshtabdagi "Grunt suvlari sathining o'zgarishi" hamda "Grunt suvlarining minerallasish va tuproq sho'rlanish darajasi" kartalari yer resurslarining meliorativ holatini yaxshilash hamda ulardan oqilona foydalanishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Amudaryo deltasi landshaftlarining melioratsiya ta'sirida o'zgarishi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Amudaryo deltasidagi hududlar tabiiy sharoitining o'ziga xosligi, Amudaryo deltasi landshaft hosil qiluvchi tabiiy omillarning hozirgi holati, tabiiy komplekslar strukturasi va deltada irrigatsiyaning rivojlanishi, yer osti suvlari va tuproq sho'rlanish darajalari bilan bog'liq ravishda sho'rlanmagan, kuchsiz sho'rlangan, o'rtacha sho'rlangan va kuchli sho'rlangan tuproqlar vujudga kelganligini asoslovchi xulosalaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023 yil 14 dekabrda 01/18-2-1998 son ma'lumotnomasi). Natijada, Amudaryo deltasi hududida qishloq xo'jalik yerlaridan rejali foydalanish imkonini bergan;

Amudaryo deltasida sug'oriladigan va yangi o'zlashtirilgan yerlarning tuproq meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha aniqlangan va ilmiy asoslangan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning tabiiy meliorativ holati bo'yicha olingan ilmiy natijalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotiga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023 yil 14 dekabrda 01/18-2-1998 son ma'lumotnomasi). Natijada, delta landshaftlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy o'zgarishlarini oldini olish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini bergan;

Amudaryo deltasining "Yer osti suvlari" hamda "Grunt suvlarining mineralizatsiya darajasi va tuproqlarning sho'rlanish darajasi" kartalaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023 yil 14 dekabrda 01/18-2-1998 son ma'lumotnomasi). Natijada, Amudaryo deltasi landshaftlarining kadastr tizimini takomillashtirish imkonini bergan;

Amudaryo deltasi yerlarini tabiiy meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha rayonlashtirish ishlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023 yil 14 dekabrda 01/18-2-1998 son ma'lumotnomasi). Natijada, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini belgilovchi tabiiy omillarni har tomonlama miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilinib, ulardan qishloq xo'jaligi maqsadlarida tabaqalashtirilgan holda foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 sahifani tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yirik daryo deltalari landshaftlarining meliorativ holatini yaxshilashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida landshaftlar meliorativ holatini yaxshilashning nazariy asoslari, melioratsiyaning samaradorligini oshirishning tabiiy geografik asoslari, Amudaryo deltasi havzasining tabiiy geografik tavsifi va deltada irrigatsiyaning rivojlanishi hamda Amudaryo deltasi landshaft hosil qiluvchi tabiiy omillarning hozirgi holatining asosiy yo'nalishlari ochib berilgan.

Landshaftlar meliorativ holatini yaxshilashning nazariy asoslari bo'yicha o'zining mazmuni jihatidan turli xil bo'lgan ko'plab taklif va tavsiyalar mavjud (V.V.Dokuchaev, A.A.Rafikov va G.F.Tetyuxin, V.A.Popov, V.V.Yegorov, V.A.Rafikov, R.E.Kurbanbaev va boshqalar). Albatta ularning mazmuni nihoyatda xilma-xil. Ularning ba'zilarida tuproqlarning tarkibi bilan hosildorlik va iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikka katta e'tibor berilgan bo'lsa ba'zilarida doimiy sug'orish uchun landshaftlarning unumdorligini aniqlashda barcha tabiiy omillarni ya'ni litologik, geomorfologik, gidrologik, gidrogeologik, tuproq-iqlimiy omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega chunki bu omillar ma'lum bir

hududning meliorativ holatini shakllanishida asosiy vazifa bajaradi deb ta'kidlansa, boshqasida landshaftlarning meliorativ holatlarini belgilashda tuproqning mexanik tarkibi, fizik-kimyoviy xossalari va agrokimyoviy ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega deyiladi. Respublikamizda meliorativ geografiyaning asoschisi bo'lgan A.A.Rafikov o'zining tadqiqotlarida Janubiy Orolbo'yi hududlarining tabiiy-meliorativ sharoitini baholashda meliorativ holatni belgilovchi asosiy tabiiy omillarga katta e'tibor berish bilan bir qatorda ana shu hududlarda kelajakda ro'y beradigan tabiiy-meliorativ sharoitlarning prognoziga ham alohida ahamiyat qaratadi. Shunga asosan biz o'zimizning asosiy e'tiborimizni Amudaryo deltasi landshaftlarining meliorativ holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ya'ni yer usti va yer osti suv oqimlari, tuproqlarning minerallasuv darajasi, sho'rlanish darajasi, tuproq va o'simlik degradatsiyasi, hududning tabiiy drenajlanishi va boshqa omillarga qaratdik.

Bundan tashqari, A.A.Rafikov va G.F.Tetyuxin ilmiy ishlarida Janubiy Orol bo'yida salbiy jarayonlar va hodisalarning oldini olish bo'yicha meliorativ loyihalashning tabiiy geografik asoslarini ochib bergan. Unda Amudaryo deltasini muntazam oqim bilan ta'minlab turish va to'qayzorlarni, ko'l-botqoqlik hamda cho'l komplekslaridagi yaylovlarni sug'orish, suv va yaylov resurslaridan oqilona foydalanish, deflyatsiya va boshqa tabiiy jarayonlarni oldini olish uchun ixota o'rmonlarini yaratish kerak deb ta'kidlab o'tgan. A.K.Urazbayev (2002) Amudaryo hozirgi deltasi o'ng qirg'og'ining tabiiy-meliorativ sharoitini baholashda kichik deltalarning strukturaviy butunligini asos qilib oladi. Muallifning ta'kidlashicha, sug'orilmaydigan massivlarda tabiiy-meliorativ sharoit kichik deltalarning strukturaviy yaxlitligi bilan o'zaro bog'langandir. F.I.Xakimov relyef plastikasi usuli asosida Amudaryo hozirgi deltasi o'ng qirg'og'i tuproqlarining meliorativ sharoitini baholaydi. A.N.Nig'matov, P.Reymov, S.Abdireymov, delta tekisliklarini baholashda geoekologik monitoringni o'tkazishni lozim deb topadi va uning metodologik asoslarini ishlab chiqadilar.

Yerlarning meliorativ holati bugungi kunga kelib juda dolzarb muammolardan biriga aylanib qoldi, buning asosiy sababi, birinchidan, kun sayin ko'payib borayotgan hudud aholisini oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, sanoatning rivojlanishi hisobiga ko'plab yangi yerlarni o'zlashtirish, ekin maydonlarini kengaytirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga ehtiyoj sezilgan. Melioratsiya tub ma'nosi ham yerning tabiiy xususiyatlarini e'tiborga olib, ekinlarni ekish uchun qulay sharoitlarni yaratish, yaylovlarning mahsuldorligini oshirish, turli salbiy hodisalarga qarshi kurash chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Meliorativ tadbirlarning samaradorligini oshirishda yana relyefning qiyalik va baland pastlik bo'yicha parchalanganlik xaritalarini tuzish va amalda foydalanishga tadbir qilish amaliy ahamiyat kasb etadi. Relyefning qiyaliklar xaritasi tekislikning qiyaligini gradus ko'rinishida ifodalashi mumkin. Qiyalik xaritasi yer osti va usti suvlari oqimining qaysi yo'nalishda harakat qilishini tasvirlaydi. Relyefning chuqurliklar bo'yicha parchalanishi esa biror hududda

relyefning eng chuqur joyidan uning atrofidagi yerlar qanchalik balandda turishi aniq chegaralarda ko'rsatiladi.

Amudaryo deltasi tuproqlari ularni hosil qiluvchi omilarning xususiyatlariga bog'liq ravishda xilma-xildir. Qadimgi qoldiq balandliklarda va Aqchadaryo deltasida qumoq va sur qo'ng'ir tuproqlar, hozirgi deltaning chekkalarida taqir, taqirsimon tuproqlar hamda qoldiq sho'rxoklar tarqalgan. Sizot suvlari yer yuziga yaqin bo'lgan joylarda o'tloq, o'tloq taqir, botqoq-o'tloq tuproqlar va sho'rxoklarning hamma turlari uchraydi. Bu tuproqlar turli darajada sho'rlangan bo'lib sho'rlanish darajalari yildan yilga oshib bormoqda (1-jadval).

1-jadval

2000-2021 yillar uchun Amudaryo deltasi sug'oriladigan yerlarining tuproq sho'rlanish darajasi

Yillar	Jami sug'oriladigan maydon ming.ga	Shu jumladan sho'rlanish darajasi bo'yicha, ga							
		Sho'rlanmagan		Kuchsiz sho'rlangan		O'rtacha sho'rlangan		Kuchli sho'rlangan	
		ming. ga	%	ming. ga	%	ming. ga	%	ming. ga	%
2000	500,09	47,95	10	244,09	48	158,53	32	49,52	10
2001	501,86	62,31	12	215,71	43	172,25	34	51,59	11
2002	498,67	64,45	13	169,73	34	192,88	39	71,61	14
2003	500,76	59,73	12	178,54	36	183,08	37	79,41	15
2004	500,72	56,36	11	180,81	36	170,56	34	92,99	19
2005	499,36	56,57	11	169,02	34	171,36	34	102,41	21
2006	500,40	60,96	12	158,45	32	175,86	35	105,13	21
2007	504,00	59,41	12	154,79	31	182,73	36	107,07	21
2008	504,53	57,14	11	157,23	31	183,97	36	106,19	22
2009	515,05	53,26	10	164,26	32	185,07	36	112,46	22
2010	515,29	51,33	10	154,03	30	196,63	38	113,30	22
2011	515,22	49,06	10	148,77	29	200,45	39	116,94	22
2012	515,20	46,93	9	150,17	29	198,85	39	119,25	23
2013	515,14	47,21	9	151,97	30	194,38	38	121,57	24
2014	508,71	45,40	9	152,08	30	187,19	37	124,04	24
2015	509,50	41,32	8	152,15	30	190,48	37	125,54	25
2016	509,56	35,38	7	156,54	31	182,11	36	135,54	26
2017	510,56	21,98	5	160,62	31	168,51	33	159,45	31
2018	510,40	23,78	5	155,13	30	178,96	35	152,53	30
2019	510,30	23,37	5	157,11	31	179,96	35	149,86	29
2020	514,63	20,06	4	158,89	31	183,63	36	152,05	29
2021	517,133	20,417	4	163,463	32	182,656	35	150,597	29

Amudaryo deltasi tuproqlari va ularni hosil qiluvchi tarkibiy qismlarining xususiyatlariga bog'liq ravishda xilma-xil bo'lib, deltaning g'arbiy qismi eng past joyi hisoblanadi. Shuning uchun bu yerda avvallari (1974 yilga qadar) daryo suvi toshganda ancha vaqtgacha ko'lob bo'lib turar, markaziy va sharqiy qismi balandroq bo'lgani uchun qisqa muddatda suv bilan qoplanar va tezda qurib qolar edi shuning uchun bu yerlarda hozir ham sholi ekiladi. Amudaryo deltasining quyi qismida tarqalgan o'tloq-qayir allyuvial va o'tloq-botqoq tuproqlarning ustki

qismida chirindi miqdori 2-3 % ga yetadi, pastqam, grunt suvlari yer yuzasiga yaqin yerlarda bu tuproqlar sho'rlangan. Sug'oriladigan o'tloq (o'tloq voqa) tuproqlari Amudaryoning asosan qadimiy deltasida va hozirgi deltasining quyi qismi chekkalarida tarqalgan. Deltada cho'l qumloq tuproqlari sharqiy qismida va qadimiy deltaning Qoraqumga yaqin yerlarida tarqalgan. Amudaryo deltasida yerdan foydalanish koeffitsiyenti katta emas. Deltada dehqonchilik qilinadigan yerlarning sho'rlanishiga qarshi meliorativ tadbirlarni qo'llashni taqozo qiladi.

Dissertatsiyaning **“Amudaryo deltasida tabiiy komplekslarining inson xo'jalik faoliyati ta'sirida davriy o'zgarishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida XX asrning 1960-1990 yillar, 1990-2020 yillar va 2020 yillardan keyingi yillarda tabiiy komplekslarning holati va meliorativ ahvoli hamda Amudaryo deltasida tabiiy komplekslarining dinamikasi va taraqqiyoti tahlil qilingan.

1960-1990 yillarda Amudaryo deltasida ro'y berayotgan tabiiy-geografik jarayonlar Amudaryo suv rejimining o'zgarishi va Orol dengizi sathining pasayishi bilan chambarchas bog'langandir. Shuning uchun ham bu davrda olib borilgan tadqiqotlarda Amudaryo suv rejimining o'zgarishiga, deltada ro'y berayotgan avtomorf jarayonlarga va Orol dengizi sathining pasayishi natijasida vujudga kelayotgan cho'llanishga katta e'tibor qaratilgan. O'zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan Amudaryo deltasida landshaftlarining tabiiy-meliorativ holati o'ziga xos bo'lib, qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yerlarni o'zlashtirishda, sug'oriladigan landshaftlarning holatini yaxshilashda tuproq-meliorativ chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Amudaryoning quyi oqimidagi tabiiy komplekslar tuzilish jihatdan juda murakkab bo'lib, bu Orol dengizi sathining pasayishi va deltaning gidrologik rejimining tartibga solinishi bilan bog'liq bo'lgan.


Amudaryo deltasining sug'oriladigan qismi bir qancha tadqiqotchilar tomonidan yaxshi o'rganilgan, qirg'oq zonasi esa yetarlicha o'rganilmagan. Dengiz sathining pasayishi va deltaning gidrorejimini tartibga solinishi, ularning sath rejimi hamda kimyoviy tarkibi jadal o'zgarib borayotgan hozirgi davrda mintaqadagi yer osti suvlari rejimini o'rganish katta amaliy ahamiyatga ega. Amudaryo yer osti suv rejimi va oqimlarning shakllanish sharoitlariga ko'ra, delta yer osti suvlarining asosiy manbai sug'orish suvlari va yer osti suvlari rejimi bilan bog'liq bo'lgan tabiiy omillar hisoblanadi. Amudaryo deltasida yer osti suvlari rejimi sug'orish va tabiiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi, bu esa purkagichlar va sug'oriladigan maydonlar orqali infiltratsiya, shuningdek, tashlanma suvlarni pastqamliklarga oqizishi bilan bog'liq.

Amudaryo deltasining shimoliy qismida tuproq sho'rlanishi shuni ko'rsatadiki, muntazam sug'oriladigan kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan yerlarda tarkibida kalsiy ko'p bo'lgan xlorid-sulfat tipidagi sho'rlanish, sug'orilmaydigan yerlarda sho'rlangan va sho'r botqoqlar hukm suradi. Daryo qirg'oqlaridagi tuproqlar amalda sho'rlanmasligi, o'zandan uzoqlashgani sari sho'rlanish darajasi asta-sekin o'sib borishi, qurigan ko'llarning tubida cho'kindilarning litologik tarkibining o'zgarishi va minerallashuvi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin.

Oqdaryo, Toldiqdaryo va Qipchoqdaryo kanallaridan 5-6 km uzoqlik masofada joylashgan dehqonchilik uchun sugʻoriladigan yerlar tabiiy drenaj bilan taʼminlangan hudud hisoblanadi. Shu munosabat bilan, baʼzi joylarda drenajlash talab etilmaydi, boshqalarida esa tuproq qatlamlarida loy ustunlik qiladigan joylarda drenajlar kerak boʻladi. Shu bilan birga, tekisliklarning chekka qismlaridagi drenajsiz chuqurliklar mahalliy suv olish joylari boʻlib xizmat qiladi, chunki dalalardagi oqova suvlarning bir qismi shu yerda toʻplanadi. Yerlarni suv bosishining oldini olish uchun esa tekislikning baland qismlarida suvni kam sarflaydigan ekinlarni yetishtirish maqsadga muvofiq, ikkinchi tomondan, sugʻorish texnikasining samaradorligini (samaradorlik koeffitsientini) oshirish kerak.

Amudaryo deltasi yer osti suvlarining chuqurligi 3-5 m va 5-10 m, baʼzan undan ham pastroq boʻlib, drenajli va drenajsiz delta pasqamliklar bilan bogʻliq. Suv bosgan kanallararo pastqamliklar yaqinida yer osti suvlari sathi (2-3 m) yuzaga yaqinlashadi.

Amudaryo deltasi yer osti suvlarining sathi turli yillarda turlicha boʻlib, suv sathining koʻtarilishi yoki tushishiga hududning drenaj bilan taʼminlanganlik darajasi, iqlim va qishloq xoʻjaligida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik katta taʼsir koʻrsatadi (1-rasm). Yer osti suvlarining minerallasuv darajasi hududning koʻp qismida 10-30 g/l va undan ortiq hisoblanadi. Tuproqlari xlorid-sulfat bilan kuchsiz, oʻrtacha va kuchli shoʻrlangan yerlar koʻpincha shoʻrxoklar bilan birlashib ketgan.




Tuproqning shoʻrlanish darajasi relyef sharoitiga va tuproqning mexanik tarkibi xususiyatiga bogʻliq. Relyefning baland joylarida va qurib qolgan kanallar yaqinida tuproqlar odatda kuchsiz va shoʻrlanmaydi, deltadagi tekisliklar va pastliklardagi tuproqlar kuchli shoʻrlangan. Maksimal tuz miqdori yuqori qatlamda, ularning zaxirasi 0-20 sm qalinlikda 50 t/ga dan 70 t/ga gacha, 20-50 sm qatlamda 10 t/ga dan 35 t/ga gacha; 50-100 sm 20 t/ga dan 60 t/ga gacha; 100-200 sm 35 t/ga dan 135 t/ga gacha boʻladi.

Bu kompleks tadbirlar V.V.Dokuchaev, P.A.Kostyakov, V.R.Vilyams ishlarida ilmiy asosda ishlab chiqilgan va hozirgi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Meliorativ tadbirlarni suv tartibotini boshqarib borishida, yerning ustki va ostki qismida oqib keladigan va chiqib ketadigan suv miqdorini har qaysi gidrografik basseynida boshqarib va undan suv xo'jaligida to'g'ri, oqilona foydalanish bilan bir qatorda, suv transporti, yerlarni suv bilan ta'minlash va hattoki baliqchilik va boshqa qishloq xo'jalik ishlarini yanada yuksaltirishda qo'llanishi lozim. Bu hududlarning tabiiy-meliorativ holati ancha murakkab sharoitlar bilan tavsiflanadi, ularni xo'jalik aylanmasiga jalb qilish uchun mavjud tuz balansini tubdan o'zgartiruvchi amaliy kompleks chora-tadbirlar qo'llash zarur. Bunday hududlardan yem-xashak yetishtirish uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir. Amudaryoning ko'p suvli yillarida (Sudoche, Oqdaryo va Qipchoqdaryo, Ko'hnadaryo, Oqdaryo va boshqalar) suv havzalari atrofida keng qamishli yaylovlar va pichanzorlarni suv bosadi va qurg'oqchil yillarda sug'orish maydoni keskin qisqaradi. Natijada bu yerda har yili (sug'orish maydoni va davriyligiga qarab) ozuqa uchun qamishdan yuqori hosil olinadi.

Qishloq xo'jaligida qilinadigan meliorativ chora-tadbirlar melioratsiyaning asosiy qismi hisoblanadi. Bu kompleks tadbirlarga agrotexnik, tuproq melioratsiyasi, o'rmonchilik, suv xo'jaligi va gidrotexnik tadbirlar kirib, bular ishtirokida tabiatni kerakli tomonga, ya'ni noqulay sharoitlarda, qishloq xo'jaligida to'g'ri oqilona foydalanish bilan birga tuproq unumdorligini oshirib, qishloq xo'jaligi uchun kerakli bo'lgan sharoitni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Amudaryo deltasi yer osti suvlarining sathi turli yillarda turlicha bo'lib, Orol dengizining qurigan qismi tomon harakatlanishiga olib keladi (2-rasm). Shu bilan birga, sohil chizig'i Orol dengizining markaziy qismiga qarab uzoqlashgani sari Amudaryo deltasi drenajining ta'sir ko'lami ma'lum darajada ortib borishi aniqlandi. Biroq, bu holda, turli yo'llar bilan dengizning quriydigan qismi havzasining drenaj ta'sir ko'lami va intensivligiga ta'sir qiluvchi bir qator holatlarni hisobga olish kerak. Hozirgi vaqtda (Orol dengizi g'arbiy qismi suv sathi (Boltiqliq dengiziga nisbatan) 24 m (2021 yil)), dengiz sathi 29 metrga qisqarganida, bu qiymatning tekis relyef sharoitida ta'sir qilish radiusi juda katta. V.S.Kovalev ma'lumotlariga ko'ra, Orol dengizining sathi qirg'oq chizig'idan 200 km gacha bo'lgan masofadagi yer osti suvlariga ta'sir qiladi. Albatta, bu 1960-yillarga qadar bo'lgan davrga xos edi. Hozirgi vaqtda (Orol dengizi g'arbiy qismi) dengizning janubiy qismidagi qirg'oqlaridan suv 250 km dan uzoqroq masofaga chekingan, natijada esa yer osti suvlari rejimiga ta'sir radiusi tabiiy ravishda ortib bormoqda. Bu yerda relyef sharoiti va tuproqlarining tarkibini ham hisobga olish kerak.

Amudaryo deltasi landshaftlarini tasniflashda landshaft guruhlari muhim ahamiyatga ega. Delta landshaftlari suvlarning geokimyoviy tartibi bo'yicha gidromorf, yarim gidromorf va avtomorf guruhlarga ajratiladi. Amudaryo deltasi 1961 yilgacha asosan gidromorf guruhdagi landshaftlar ustunlik qiladi. Biroq, hududda 1961 yildan Orol dengizi sathining pasayishi natijasida yarim gidromorf va avtomorf landshaftlar paydo bo'la boshladi. D.Xursanov Amudaryo deltasi tabiiy komplekslar strukturasi tadqiq qilishda ham element tushunchasiga e'tibor bergan holda relyefning ikki elementini, ya'ni balandlik va pastliklarni tizimli ajratadi.



2-rasm. Amudaryo deltasi grunt suvlari sathining o‘zgarish kartasi. (1991, 2001, 2011, 2022 yillar)
(V.A.Rafikov, E.A.Fayziyev tomonidan yaratilgan.2022 y.)


Ajratilgan balandliklar va pastliklar bir tomondan ob'ektning ichki strukturasi hosil qilsa, ikkinchi tomondan ob'ektning ichki tabaqalanishini hosil qiladi deb ta'kidlagan. Bunga misol qilib Qozoqdaryo kichik deltasida ajratilgan balandlik va pastliklar Amudaryo deltasidagi boshqa kichik deltalardan o'zlarining ichki strukturasi bilan keskin farq qiladi, ya'ni Qozoqdaryo deltasida joylashgan balandliklar Amudaryo o'zan oldi balandliklaridan sharqqa va shimoliy-sharqqa tomon pasayib boradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, Amudaryo deltasida joylashgan kichik deltalarida landshaftlarning balandliklar va pastliklarda tutgan o'rnini ham turlicha hisoblanadi, ya'ni balandliklarning maydoni pastliklarga nisbatan kam bo'lganligi uchun bu hududda avtomorf landshaftlarga qaraganda, gidromorf landshaftlarning maydoni ancha ko'p bo'ladi. Sug'orilmaydigan kichik deltalarning tuzulishi kollektor havzalarida tarqalgan landshaftlarning tuzilishidan keskin farq qiladi.

Amudaryo deltasi landshaftlari boshqa mintaqalarga nisbatan juda o'zgaruvchan bo'lib, bu nafaqat qurg'oqchilik sharoiti, balki hududning tabiiy xususiyatlari bilan boshqa mintaqalardan ajralib turadi. Shuning uchun 1974 yildan boshlab sug'oriladigan yerlarni muntazam sug'orish holatlarining buzilishi natijasida landshaftlarning o'zgarishi juda yuqori sur'atlarda sodir bo'lmoqda. Landshaftlar dinamikasining asosiy omillari yer usti va yer osti suvlari rejimining o'zgarishi, tuproqlarning sho'rlanishi, o'simliklar dunyosining o'zgarishi, relyef yuzasining eol jarayonlari bilan o'zgarishi hisoblanadi. Aniqlanishicha, Amudaryo deltasining markaziy va g'arbiy qismlari 1961 yildan boshlab katta o'zgarishlarga uchradi: bu yerda oldin mavjud bo'lgan ko'l-botqoq landshaftlari deyarli butunlay o'zgarib, yarim gidromorf va avtomorf bosqichlariga o'tgan. Bundan tashqari, bu o'zgarishlar bir necha bosqichda amalga oshirilgan, birinchi bosqichda (1961-1973) ekotizimlarning umumiy qurishi, ikkinchi bosqichda (1974-1977) tuproqlarda tuz to'planishi va kserofit va galofit o'simliklarning keng tarqalishi, uchinchi bosqichda (1978-1993) tekislikda eol jarayonlarini rivojlanishi, to'rtinchi bosqichda (1994-2015) eol va suv osti hamda suvdan yuqori sho'rlanish holatlarining kuchayishi, beshinchi bosqichda (2015 yildan keyingi davr) qum va chang bo'ronlarining inson salomatligi va qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir jarayonlarining ortishi kuzatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir bosqich ma'lum tabiiy sharoitlarning rivojlanishi bilan tavsiflanadi, unda u yoki bu omillarning ta'siri ustunlik qiladi.

Dissertatsiyaning **“Amudaryo deltasi tabiiy komplekslarining meliorativ holatini yaxshilash masalari”** deb nomlangan uchinchi bobida sug'oriladigan yerlarning landshaft meliorativ holatini tubdan yaxshilashning tabiiy geografik asoslari, sug'orma yerlarning sinflari va tip (tur)lari hamda ularni yaxshilashning landshaft asoslari, Amudaryo deltasini tabiiy meliorativ jihatdan yerlarni holatini yaxshilash maqsadida rayonlashtirish kabi masalalar o'z yechimini topgan.

Amudaryo deltasi daryo qirg'oqlari va ularning kanallar bo'ylab joylashgan tekisliklar sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish uchun qulaydir, chunki tuproqlarning tabiiy drenajga ega ekanligi yer osti suvlarining chiqib ketishiga yordam beradi va har qanday holatda ham yerlarning sho'rlanishini sekinlashtiradi. Shu bilan birga, tuproq sho'rlanishining oldini olish uchun odatdagi jo'yakli

